



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ADLIYA VAZIRLIGIDA  
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI  
RO'YXAT RAQAMI: 3281-6  
2026 - yil 16 - Iyul

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKI BOSHQARUVINING QARORI

### O'zbekiston Respublikasida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish qoidalarining 28-bandiga o'zgartirish kiritish haqida

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi va "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi qonunlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi **qaror qiladi**:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2020-yil 29-avgustdagi 18/5-son qarori (ro'yxat raqami 3281, 2020-yil 31-avgust) (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.08.2020 y., 10/20/3281/1242-son) bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish qoidalarining 28-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"28. Maxsus valyuta hisobvaraqlariga kiritilgan mablag'lar qat'iy ravishda buyurtmalarda ko'rsatilgan maqsadlar uchun sarflanadi.

Bunda, maxsus valyuta hisobvarag'iga kiritilgan mablag'lardan foydalanish maqsadi mijoz tomonidan bankka taqdim etiladigan qo'shimcha buyurtma asosida boshqa joriy xalqaro valyuta operatsiyasini amalga oshirish uchun o'zgartirilishi mumkin."

2. Mazkur qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi  
Markaziy banki Raisi  
13-Iyul 2026-yil  
20/4 son



ISHMETOV TIMUR  
AMINDJANOVICH